



Usmon Nosir umr yo`li va ijodiy merosi: tahlillar va tadqiqotlar

Annotatsiya

Ushbu maqola atqali shoirmiz Usmon Nosirning qisqa va mazmunli umri va uning ijodiy merosi tadqiq qilingan. She`riyatidagi xalqchillik, yurt qayg`usi va iztirobi tahlil etilgan.

Kalit so`zlar: adabiy muhit, lirik qahramon, adabiyot

Abstract

This article examines the short and meaningful life of our famous poet Usman Nasir and his creative legacy. People's patriotism, country's sorrow and suffering in his poetry are analyzed.

Key words: literary environment, lyrical hero, literature

Usmon Nosir she`riyati, avvalo, hayotiyli, jozibadorli va isyonkorli, ayni chog`da, sodda va ravonli bilan kitobxon qalbidan chuqur o`rin olgan. Shundan bo`lsa kerak, shoir she`rlari hamon davralarda tez-tez yod aytiladi: 30-yillarda ko`zga ko`ringan va el og`ziga tushgan iste`dodli shoir Usmon Nosir 1912 yil 13 noyabrda Namangan shahrida dunyoga keldi. Yoshligi Qo`qondagi bolalar uyida o`tgan Usmon o`rta maktabni bitirgach, 1931 yildan boshlab Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Pedagogika akademiyasining til va adabiyot fakul`tetida Amin Umariy, Adham Hamdamlar bilan birgalikda tahsil oldi. Usmon Nosirning ilk she`rlari maktabda o`qib yurgan vaqtlaridayoq matbuotda ko`rina boshlagan edi. Shoirning «Quyosh bilan suhbat» (1932), «Safarbar satrlar» (1932), «Traktorobod» (1934), «Yurak» (1935), «Mehrim» (1936) kabi she`riy to`plamlari, «Norbo`ta» va «Naxshon» dostonlari birin-ketin nashr qilindi.²³

Usmon Nosir adabiyot olamiga ancha yosh paytlaridanoq qadam qo`ygan bo`lsa-da o`z so`zi va ovozig ega yetuk ijodkor ekanligini isbotlay oldi. Shoirning har bir she`ri olovli qalbining ovozi o`laroq ijod ixlosmandlarining yurak-yuragigacha yetib borgani, millionlar dilida bir nur misoli balqiganiga tarixning o`zi guvoh. Nainki, o`z davri va ayni bugungi kun

* O`rinov Odilbek Laziz o`g`li - O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi o`qituvchisi

²³ O`tkir Rashid. Adabiyot 8- sinflar uchun darslik majmua 2-qism.



o‘quvchilari uchun ham uning ijodi ulkan ahamiyat kasb etadi. Taniqli adabiyotshunos olim, tarjimon va munaqqid Ibrohim G‘ofurovning quyidagi so‘zlari esa fikrimizning yaqqol dalilidir: “Usmon Nosiriy oldida bizning hech uzib bo‘lmaydigan so‘ngsiz qarzimiz bor. Har safar Usmon Nosirni xotirlaganda, har safar uning so‘zidan — she‘rlari va dostonlaridan bahrador bo‘lganda, doim shu qarz moziydan uzatilgan bir qo‘l kabi odamning yelkasidan tutadi”

Uning «Norbo‘ta»(1932) asarida O‘zbekistondagi fuqarolar urushi mavzui, «Naxshon»da qardosh arman xalqi farzandlarining ozodlik uchun intilishlari kuylangan bo‘lsa, antik dunyodagi qullar kurashi «Nil va Rim» kabi poetik asarlarida o‘z aksini topdi. Usmon Nosirning «Yurak» she‘ri shoirning insoniy xarakterini va ijodiy taqdirini o‘zida mujassam etgan she‘rlar sirasiga kiradi. Shoir Yurak obrazini o‘zining ilhomi, ijodiy intilishlari, his-tuyg‘ulari, orzu-o‘ylarining mujassam timsoli deb biladi. Ya‘ni uning Yurakka murojaati, aslida, o‘z shaxsiga, ijodiga murojaatidek yangraydi. Va bundan tashqari «Yo‘lchi» she‘rini o‘qirkanmiz, chinakam muxlis ko‘ngli bir narsani aniq ilg‘aydi. U ham bo‘lsa, lirikqahramon —shoir ko‘pchilik oddiy odamlar singari yetishish mumkin bo‘lgan orzular ko‘yida yurgan odam emas. Uning talpingan manzili «murodga qasd qilib yugurish»ni talab qiladi. Bu manzillarga yetmoq hali ne-ne mehnatva g‘ammi, qanchalar shiddatli bo‘ronlarni uning boshiga solajak... yana shunisi aniqkim, Inson bolasi yaralibdiki, qullikka, erksizlikka, mutelikka qarshi kurashib keladi. Tabiatan erk farzandi bo‘lgan shoir uchun o‘zidan minglab yillar ilgari o‘tgan insonlar qismati ham begona emas. U erksizlikning har bir qurbonini o‘z tug‘ishganiday ko‘radi, zolimlardan ularning xunini so‘raydi.²⁴ Mazkur she‘r go‘yo Usmon Nosirning o‘zini kutayotgan og‘ir erksizlik, surgun zulmatlariga oldindan ko‘targan isyonidek yangraydi! .Usmon Nosir ham ijodida ana shuhaqiqat formulasini bergani,unga yechimni tarix va bugundan qidirgani kaltakbo‘lib boshiga kulfat keltirdi.

Ham o‘tmish, ham bugun,ham kelajak uning dilrabo she‘rlariga mavzu bo‘ldi.U o‘tmishda zulm,istibdod iskanjasida ezilgan benavolar,qullarning fojiasini o‘z davri tuzumi bilan qiyosladi. Farqni topolmagach, “Qiynalaman. Tirishaman. Hushim parishon”, - deya

²⁴ Murodova M. Men – davrning kichik parchasi. ziyouz.uz elektron sayti // Fitna



mahzunlanadi. Biz oldingi darslarimizda Usmon Nosir va u yashagan davr haqida bahslashgan edik. Ijodkor ruhiyatini ochuvchi, yangi bahslarga sabab bo'lguvchi yana bir ilhom hosilasi borki, usiz biz Usmon Nosir she'riyatini to'la anglay olmaymiz. Bu she'r umr bahorining 23-sida yozilgan bo'lib, u *(6 band; har bir band 14 misra, umumiy 84 satr)* “Nil va Rim”dir. Usmon Nosir nafaqat adabiyotni, balki dunyo tarixi, falsafasi, san'atini ham chanqoqlik bilan o'zlashtirishga, buyuklarga ergashib ijod qilishga oshiqardi. Shu bois uning bitiklarida katta g'oyalar, badiiy tafakkurning erkin parvozlari, fikrning o'tkir yolqinlari yaqqol aks etardi.²⁵

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Usmon Nosir haqida shunday deydi: “Usmon Nosir deganda biz kimni tushunamiz? U shunday iste'dod egasiki, bamisoli tekkan joyini kuydirguvchi olovdir. Usmon Nosir ulug' va abadiy she'riyatning diydasi dan oqib ulgurmagan shabnamdir. U hali qahqahaga aylanmay lablarimizda manguga qotib qolgan nim tabassumdir. Uning she'rlari ko'z kabi tirik, jonli, tutquch bermasdir.

Biz Usmon Nosirni qadrlaymiz. Chunki u she'riyatning tabarruk, muqaddas dargohida anvoyi bir chaman, sira xazon bo'lmaydigan mo'jiza bog' yaratib ketdi” – Abdulla Oripov bildirgan ushbu ta'rifni dalillash maqsadida shoir tilidan aytilgan ushbu misrani keltiramiz:

Olovdek lovullab dil yonur,
Baxtliman janglarga yarasam.

Shoir dastlabki jumlada dilining olovdek lovullab yonishini aytadi, bu Usmon Nosirning naqadar jo'shqin, bitmas-tuganmas shijoat sohibi ekanining yaqqol dalilidir. Shuning uchun ham Abdulla Oripov Usmon Nosirga “Bamisoli tekkan joyini kuydirguvchi olovdir”, deya ta'rif beradi. Ushbu she'rning ikkinchi misrasida esa Usmon Nosirning yurtiga, xalqiga, jamiyatga, insoniyatga naf'i, foydasi tegadigan bo'lsa, hattoki janglarga kirishni ham baxt deb sanaydi. Bu ham shoirning yuksak insoniy fazilatlarining yorqin ifodasidir. Fikrimiz davomi sifatida shoirning “Yurak” she'riga, o'z yuragiga murojaatiga e'tibor qaratamiz:

Itoat et!

²⁵ *Международный научный журнал* №3(100), часть 1 «Научный импульс» Октябрь, 2022.



Agar sendan
Vatan rozi emas bo'lsa,
Yoril, chaqmoqqa aylan sen,
Yoril! Mayli, tamom o'lsam!

Bu she'rda Usmon Nosir hamisha erki o'zida bo'lgan yuragining jilovini o'z qo'liga oladi va itoat etishga undaydi, buning birdan bir sababi mavjud, u ham bo'lsa vatan rizoligidir. Agarda vatan rozi bo'lmasa, yorilib, garchi bu uning o'limiga sabab bo'lsa-da, chaqmoqqa aylanishiga rozi ekanligini ta'kidlaydi. O'ylab ko'rilsa, shoir nega yuragini chaqmoqqa aylanishini xohlaydi, nega yulduzga yoki shamolga emas, aynan chaqmoqqa? Chunki chaqmoq yarq etgan mo'jiza hisoblanadi.²⁶ Usmon Nosir ham insonlar xotirasida xuddi o'sha chaqmoqdek qolishni istaganligi anglashiladi. Shoirning istagi, shak-shubhasiz, amalga oshganligi esa hammamizga ma'lum.

Yoshligimning tarozisi beposangi,
Bir pallasi bahor toshi bilan og'ir.
Sevinchim ko'p, shodligim zo'r ... tilim biyron,
Qaysi umr shunday yoshlik ko'rdi axir.

She'rda aytilganidek, yoshlik tarozisi kengroq ma'noda tushunilsa, umr tarozisining bir pallasi "bahor toshi" bilan og'ir bo'ladigan bo'lsa, ma'lumki, ikkinchi tomonini unga qilingan nohaqliklar va iztiroblar yuki bosadi. Shoir tarozining ikkinchi tomonini unutib, "Sevinchim ko'p, shodligim zo'r... tilim biyron", deya hayotdan roziligini aytib, shukrona keltiradi va "qaysi umr shunday yoshlik ko'rdi axir", deya o'z fikrini isbotlaydi. Usmon Nosir she'rlari barmoq vaznida yozilgan bo'lib, shoir barcha she'riy san'atlardan mohirona foydalanadi. Usmon Nosirning "Nil va Rim", "Monolog", "Yur, tog'larga chiqaylik", "Yurganmisiz birga oy bilan", "Oydin kechalar...", "Bolalaigim", "Oq yuvib oq tarab..." nomli she'rlari ulkan poetik mo'jiza sanalib, bashariyatni goh kulishga, gohida esa yig'lashga majbur qiladi. Ba'zan iztiroblar olamiga cho'ktirsa, ba'zan o'yga toldirib, o'zi bilan uzoqlarga olib ketadi.

Bu she'r o'quvchining tuyg'ularini hayajonga soladi. Hayajon kishini befarqlikdan xalos etadi. Kimnidir befarqlikdan qutqara bilgan she'r asl badiiyat namunasidir. Usmon

²⁶ <https://zenodo.org/record>. Rayhona Baxtiyorova



Nosirning «Yana **she'rimga**» asari uning ijodiy qiyofasini belgilaydigan she'rlar sirasiga kiradi. Ushbu she'rni sinchiklab o'qigan she'rxon shoirning shu xildagi asarlarni yozib, adolatsiz zamon talablariga bo'yin egmay, yosh jonidan judo bo'lganining sababini anglaydi. She'rda chinakam asar ulkan dardning mahsuli ekanligi juda chiroyli va lo'nda ifodalanadi:

O't bo'lurmish ishq q yo'q tanda?

Dardimsanki, she'rim, yaxshisan.

Usmon Nosirning fikricha, she'r ko'ngil ermaga emas. U «hayot shaxsi». She'rning o'z hayoti, o'z umri bor. O'z hayotiga ega she'rlar yaratish uchun shoir «saharda qon tupurish»ga ham rozi. «Nasimaga deganim» she'rida Usmon Nosir o'z maqsadini yuksak badiiy shaklda ta'sirchan bayon etadi. «Ko'p hali hayotda nasibam», - deb hisoblagan shoir o'zining oldida og'ir sinovlar turganligini sezadi. Shoirning xavotirli bashorati shunday ifoda etiladi:

Oldimda kutadir imtihon

Men og'ir janglarda bo'larman.

Nasima! Bu kungi issiq qon,

O, balki to'kilur... o'larman...

Kurashlarga tashna, janglarga tayyor, o'limdan ham qaytmas insonning otash qalbi tug'yonlari bu she'rda g'oyat ta'sirchan ifodalangan. Usmon Nosir Cho'lponni o'zining eng buyuk ustozini hisoblagan. Ularning she'rlarida anchagina ruhiy yaqinlik bo'lsa-da, tashqi o'xshashlik kuchli emas. Cho'lponning she'rlari - ancha mayin. Eng bezovta tuyg'ular, eng qahrli noroziliklar ham sharqona mayinlik va o'zbekona musiqavorlik bilan she'rga solingan. Usmon Nosirda boshqa holatni kuzatish mumkin. U qaynoq tuyg'ularni, po'rtanali ruhiy holatlarni kishini hayajonga soladigan tarzda aks ettiradi. She'r bitayotganda o'zini hadeb jilovlayvermaydi. Uning she'rlari o'z mualliflarining qanday odamligini ayon ko'rsatib turuvchi badiiy hujjatlardir.

Uning barcha she'rlarida, tarjimalarida kismet tilga kirgan satrlar, bandlar bor! Balki qismat uning qalbida juda erta tilga kirgandir. Lekin she'rlarida qismatning ovozi o'ttiz uchinchi yildan to'xtovsiz eshitila boshladi. Esingizdami, uning dastur she'ri «Yurak»dagi



so'nggi satrlar: «Yoril, chaqmoqqa aylan sen, Yoril! Mayli tamom o'lsam!..» Men buni qismat ovozi deb bilaman. Shoir o'z taqdirini bashorat qilishga o'tgan edi. Yoki mashhur «Monolog»ni eslang. Bunda barcha o'tli satrlar — qismat ovozi. Va ayniqsa: «Ehtimolki, tamom qilmasdan — Umrin tugar...» Chamasi, «Nil va Rim» ham boshdan-oyoq qismat sasi. «Lampam yonur... yaralangan qanotdek og'ir O'y bosadi. Yuragimda go'yo sel yog'ar...» Usmon Nosirning bu sirli she'rda Homer bilan bahslashuvi ham, Rim sahnasida gladiator bilan yo'lbars olishuvi ham, xalqning bu qonli manzaradan zavqlanishlari ham va nihoyat, «Rim — o'yindan o'lim kutgan jinni teatr» satri ham bari-bari o'z taqdiriga bashoratlar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S. Qambarova “Shoir o'lmaydi”
2. “Tafakkur” jurnali
3. Международный научный журнал No3(100), часть 1 «Научный импульс» Октябрь, 2022.
4. O'tkir Rashid. Adabiyot 8- sinflar uchun darslik majmua 2-qism.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. 29-bet.
5. Murodova M. Men – davrning kichik parchasi. ziyouz.uz elektron sayti // Fitna